GLOBAL O'ZGARISHLAR DAVRIDA FAN VA TA'LIMNING AHAMIYATI

Yernazarov Faxriddin Tulkunovich
Imom Buxoriy nomli Toshkent Islom instituti katta o'qituvchi
"Bilim- inson qalbini yorituvchi nur, har ishning asosi- ma'rifatdir".
(Ahmad Yassaviy)
https://doi.org/10.5281/zenodo.18457267

Globallashuv jarayonlari hayotimizning barcha sohalariga kirib kelmoqda. Xususan, fan va ta'lim tizimidagi o'zgarishlar jamiyat rivojlanishiga, milliy qadriyatlar transformatsiyasiga [1]("transformatio "lotincha so'z bo'lib, "qayta o'zgarish", "qayta hosil bo'lish" ma'nolarini anglatadi) va g'oyaviy tarbiya masalalariga ta'sir ko'rsatmoqda. Zamonaviy axborot texnologiyalari, internet va ijtimoiy tarmoqlar orqalili turli madaniyatlar, bilimlar va g'oyalar orasidagi chegaralar yo'qolib bormoqda. Buning natijasida yoshlar dunyoqarashi shakllanishida, ularning milliy o'zlikni anglashi va g'oyaviy immunitetining mustahkamlanishida yangi vazifalarni olib kelmoqda. G'oyaviy tarbiya masalalari, ayniqsa, fan va ta'lim globallashuvi sharoitida alohida zaruriyatga aylanmoqda. Bunga sabab hozirgi davrda yoshlar ongiga ta'sir qiladigan axborot oqimi ancha kengaydi. Yoshlar internet orqali turli g'oyalar, qarashlar va mafkuralarning ta'sirida qolmoqdalar. Bu esa ta'lim muassasalari oldiga yangi, dolzarb maqsad va vazifalarni – talaba yoshlarni nafaqat bilimli qilib tarbiyalash, shuningdek ularni tanqidiy fikrlashga, axborotni saralab olishga va milliy qadriyatlar asosida to'g'ri qaror qabul qilishga o'rgatish vazifasini qo'ymoqda. Jonajon ona Vatanimiz O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlari ham aynan shu maqsadlardan kelib chiqqan. Zamonaviy bilimlar bilan bir qatorda, o'zligimizni anglash, milliy g'oyamizni mustahkamlash, yoshlarni vatanparvarlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash hozirgi davrdagi oldimizda turgan eng zarur va manfaatli vazifalaridandir. Albatta, bu vazifani baajarish-davr talabidir.

Ma'lumki, bilim- dunyodagi eng ulkan xazinalardan biridir. O'n ikki asr ilgari,ulug' ajdodimiz hadis ilmi sultoni Imom Buxoriy hazratlari: "Dunyoda ilmdan boshqa najot yoq va bolmagay", deb aytgan hikmatli so'zlari chin haqiqatdir. Ilm - najot, haqiqiy najot. "Eng katta boylik-bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros- bu yahshi tarbiya, eng katta qashshoqlik- bu bilimsizlikdir. Shu sababli hammamiz uchun ilg'or bilimlarni o'zlashtirish, chinakam ma'rifat va yuksak madaniyat egasi bo'lish uzluksiz hayotiy ehtiyojga aylanishi kerak".[2]

Fan-dunyodagi bilimlar tizimi, ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, yangi bilimlar hosil qilish faoliyatini ham, bu faoliyat natijasida hosil bo'lgan ilmiy bilimlarni ham o'z ichiga olib, inson bilimlari sohalarini aks ettiradi. Fan-dunyo xalqlaridagi bilimlar sistemasi, ijtimoiy ong shakllaridan biri. U yangi bilimlarni egallash bilan bog'liq faoliyatni ham, bu faoliyatning mahsuli – olamning ilmiy manzarasi asosini tashkil etuvchi bilimlarni ham o'z ichiga oladi; inson bilimlarining ayrim sohalarini ifodalaydi. Fanning bevosita maqsadi o'zining o'rganish predmeti hisoblangan voqelikning qonunlarini kashf etish asosida shu voqelikning jarayon va hodisalarini ta'riflash, tushuntirish, oldindan aytib berishdir. [3]

Ta'lim -o'quvchilarni nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakala bilan qurollantirish, ularning bilish qobiliyatlarini o'stirish va dunyoqarashlarini shakllantirishga yo'naltirilgan jarayon.[4] Fan va ta'limning ahamiyati juda yuqori ekanligi ma'lum. Fan va ta'lim bir biri bilan

o‘zaro chambarchas bog‘langan.Ta’lim fanning natijalarini tarqatish vositasi bo‘lsa, fan ta’limning mazmuniy asosidir. Ta’limsiz fan rivojlanmaydi, fansiz ta’lim zamonaviy talablarga javob bera olmaydi.

Globallashuv davrida milliy va umuminsoniy qadriyatlar birligini ta’minlash, g‘oyaviy bo‘shliqning oldini olish uchun ta’lim tizimida samarali mexanizmlarni ishlab chiqish mumkin. Globallashuv davrida milliy g‘oyani takomillashtirish, yoshlar ongida vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirish, internet va axborot texnologiyalaridan oqilona foydalanish orqali g‘oyaviy tarbiyani yangi bosqichga ko‘tarish masalalari izohlanadi. Globallashuv davrida g‘oyaviy tarbiyaning dolzarbligi bugungi kunda globallashuv jarayonlari natijasida dunyo mamlakatlarining iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalari mustahkamlanib, yagona axborot makonining shakllanishi o‘rganilmoqda. Bu jarayon, ayniqsa, ta’lim sohasiga katta ta’sir ko‘rsatmoqda. Ta’lim va fan globallashuvi bir tomondan, ilm-fan yutuqlaridan keng foydalanish, ilg‘or tajribalarni o‘zlashtirish, zamonaviy kadrlar tayyorlash imkoniyatlarini bersa, ikkinchi tomondan, milliy qadriyatlar, ma’naviy merosni saqlash va rivojlantirish masalasini kun tartibida turibdi. Chunki, globallashuv davrida turli mafkuraviy ta’sirlar, g‘oyaviy tahdidlar ko‘payib, axborot xurujlari ham kengaymoqda. Bu esa yoshlar ongini zabt etish uchun kurashning kuchayishiga olib kelmoqda. Shu sababli, ta’lim jarayonida bilim berish bilan, o‘quvchi va talaba yoshlarni milliy g‘oya asosida tarbiyalash, ularda g‘oyaviy immunitetni shakllantirish juda muhim vazifaga aylanmoqda. Sevimli diyorimiz O‘zbekistonda g‘oyaviy tarbiya bo’yicha amalga oshirilayotgan islohotlar va huquqiy asoslar so‘nggi yillarda ta’lim sohasida, ya’ni, g‘oyaviy tarbiya yo‘nalishida tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Qabul qilingan qonunlar va Prezident farmonlari huquqiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni [5] ta’lim tizimining huquqiy asoslarini belgilab berdi . O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti muhtaram Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil 3-maydagi PF-5712-son “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmonida “yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ularni turli mafkuraviy tahdidlardan himoya qilish” masalalari muhim vazifa sifatida belgilangan.[6]

Globallashuv fan va ta’lim sohalarida chuqur integratsiyani talab qilmoqda. Raqamli texnologiyalar ilmiy tadqiqotlarning tezligini oshirmoqda, ma’lumotlar almashinuvi osonlashmoqda va xalqaro hamkorlik kengaymoqda. Birlashgan Millatlar Tashkilotining maxsus muassasasi bo‘lgan YUNESKO ta’lim, ilm-fan va madaniyat sohalarida xalqaro hamkorlik orqali tinchlik va barqaror rivojlanishni qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiladi . O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin, 1992-yilda BMTga a‘zo bo‘lib, ayniqsa YUNESKO bilan ta’lim, fan va madaniyat sohasida faol hamkorlikni yo‘lga qo‘ydi . Bu holat globallashuvning ta’lim sohasidagi amaliy ko‘rinishlaridan biri edi.

Uning dolzarbligi zamonaviy axborot texnologiyari va internet muhitining kengayishi sababli yuzaga kelayotgan g‘oyayviy xavf-xatarlar, milliy qadriyatlarning transformatsiyasi hamda ushbu jarayonlarning yosh avlod tarbiyasiga ta’siri ilmiy-nazariy jihatidan tahlil qilish zaruriyatidan kelib chiqadi.

Globallashuv davrida fan va ta’lim tizimlari tubdan o‘zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Axborot texnologiyalari va internet muhitining kengayishini faqat ta’lim mazmuni va usullariga emas, balki uning metodologik asoslariga ham ta’sir ko‘rsatmoqda. Zamonaviy ta’lim tizimida an’anaviy usullar bilan bir qatorda innovatsion yondashuvlardan ham foydalanilmoqda, bu esa o‘quv jarayonini sifat bo‘yicha yangi bosqichga olib chiqmoqda.

Ta’limning globallashuvi nafaqat bilimlarni o‘zlashtirish, balki dunyo miqyosida amal qiladigan malakalarni shaklantirishni nazarda tutadi. Bunda milliy qadriyatlar va umuminsoniy qadriyatlarni uyg‘unlantirish masalasi alohida ahamiyatga ega. Globallashuv sharoitida milliy ta’lim tizimning innovatsion rivojlanishi, g‘oyaviy tarbiyaviy yangi metodologik asoslarinini shakllantirish dolzarb masalalardindir .

Ta’lim jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg‘unlashtirish, yoshlarda ma’naviy qadriyatlarni shakllantirish va ularning g‘oyaviy immunitetetini mustahkamlash zarur. Shuningdek, media savodxonlik va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish g‘oyaviy tarbiyaning muhim tarkibiy qismidir. Globallashuv davrida fan va ta’limning innovatsion rivojlanishi ularning samaradorligini oshirishning asosiy omilidir. Innovatsion ta’lim nafaqat yangi texnologiyalardan unumli foydalanishni, balki yangicha fikrlash, izlanish va ijod qilish qobiliyatini rivojlantirishni nazarda tutadi.

O‘quvchi va talaba yoshlarning kamol topishida o‘quv jarayonlarining ahamiyati va ta’siri beqiyosdir. Bilimlarni o‘zlashtirish ularning tafakkurini o‘sishiga yordam beradi, ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishning asosiy vositasi bo‘lib qoladi. Bu jarayonda ularda ijtimoiy xulq mezonlari shakllanadi. O‘z-o‘zini tarbiyalashga ota-ona, o‘qituvchining tarbiyaviy ta’siri yanada samarali bo‘ladi. Tarbiya bilan rivojlanishning o ‘zaro bir-biriga ta’siri va munosabatlari mavjud, chunki qayerda tarbiya jarayonida yuzaga kelgan muammolari to‘g ‘ri hal etilsa, u inson kamolotiga samarali ta’sir ko‘rsatadi.

Internet muhitida tarqalayotgan axborotlarning haqqoniyligini baholay olish,ularni tanqidiy tahlil qila olish, shuningdek, zararli axborot ta’siridan o‘zini himoya qila olish ko‘nikmalarini shakllantirish zamon talabidir.

Yoshlarni milliy qadriyatlar va urf-odatlar asosida ma’naviy- ma’rifiy dunyoqarashini shakllantirishda oila, ta’lim muassasasi va mahalla hamkorligining ahamiyati juda muhim. Ushbu uchlik yoshlarning har tomonlama barkamol rivojlanishiga yonaltirilgan yagona tarbiya muhitini yaratishi zarur.

Yangi O‘zbekiston strategiyasi asosida ta’lim sohasida olib borilayotgan islohatlar nafaqat milliy, balki xalqaro talabalar darajasiga mos keladigan ta’lim tizimini shakllantirishni nazarda tutadi. Buning uchun nafaqat moddiy- texnik bazani yaxshilash, balki pedagogik kadrlarning malakasini oshirish, ularning kasbiy mahoratini takomillashtirish ham muhim ahamiyatga ega.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, global o‘zgarishlar davrida fan va ta’limning ahamiyati ortib bormoqda, shuningdek uning mohiyati va vazifalar tubdan o‘zgarmoqda. Zamonaviy davr fan va ta’limdan faqat bilim berish, balki yoshlarni turli g‘oyaviy tahdidlardan himoya qilish, ularning ma’naviy dunyoqarashini shakllantirish, milliy qadriyatlarni saqlab qolgan holda umuminsoniy qadriyatlarni o‘zlashtirishga qaratilgan yagona tizimni shakllantirishni talab etadi.Quyidagi tavsiyalar globallashuv davrida fan va ta’lim samaradorligini oshirishga yordam beradi:1.zamonaviy talablar asosida o‘quv dastur va darsliklarni yangilash, ularga milliy va umuminsoniy qadriyatlarni birlashtiruvchi modullarni kiritish; 2.ta’lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish; 3.yoshlarning turli g‘oyaviy tahdidlarga qarshi qobiliyatini oshirish ya’ni g‘oyaviy immunitetni mustahkamlash ; 4.o‘quvchi va talaba yoshlarda tanqidiy fikrlash va media savodxonik ko‘nikmalarini oshirish; 6.. zamon talablariga javob beradigan yuqori malakali o‘qituvchilar va olimlarni tayyorlash, va ularning ilmiy tadqiqotlarini amaliyotdagi ijrosini tartibga solish ; 7.xorijiy davlatlar bilan ilmiy-pedagogik aloqalarni takomillashtirish, ilg‘or tajriba va texnologiyalarni o‘zlashtirishdan iborat. Ushbu tavsiyalarni

amalga oshirish global o‘zgarishlar davrida O‘zbekiston Respublikasi fan va ta’lim tizimining raqobatbardoshligini oshirish, yoshlarni zamonaviy talablar asosida tarbiyalash uchun yagona tizimni shakllantirishga xizmat qiladi, deb o‘ylaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. w.w.w.uz.wikipedia.org
2.Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Toshkent: O‘zbekiston. 2023.- 416 bet.
3.w.w.w.uz.wikipedia.org
4.Toxtaxodjayeva va boshqalar. Pedagogika (pedagogika nazariyasi va tarixi).-Toshkent: “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti, 2010. - 400 b.
5. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. 2020-yil 23-sentabr, O‘RQ-637-son.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil 3-maydagi PF-5712-son “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni.